III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 19 279,9 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 106,3 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 18 801,0 mlrd. so‘mni (106,5 foiz), ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 0,1 mlrd. so‘mni (101,9 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari 156,2 mlrd. so‘mni (101,2 foiz), baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari 322,6 mlrd. so‘mni (101,4 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi (mlrd.sum)



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning o‘sish sur‘atlari



Xususan, yuqori o‘sish sur‘ati Tuproqqal’a (115,2 foiz), Gurlan (111,5 foiz) va Qo‘shko‘pir (110,2 foiz) tumanlarida kuzatildi. Aksincha, eng past o‘zgarish Urganch (100,6 foiz) va Xiva (101,5 foiz) shaharlarida kuzatildi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining hududlar kesimida taqsimlanishi (foiz hisobida)



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida hududlar bo‘yicha yetakchilik qilayotgan tumanlarning ulushi Urganch tumanida - 12,2 foiz, Qo‘shko‘pir tumanida - 10,6 foiz, Bog‘ot tumanida -10,1 foiz, Xonqa tumanida - 9,8 foiz, Gurlan tumanida -9,7 foiz, Hazorasp tumanida - 9,6 foizni tashkil etdi. Xiva shahri -0,3 foiz, Urganch shahri - 2,3 foiz va Tuproqqal’a tumani- 2,4 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egallashdi, eng kam ulush Xiva shahrida (0,3 foiz) qayd etildi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida 2023-yilning yanvar- sentabr oylarida 18 554,9 mlrd. so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,4 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 112,4 foizni va chorvachilik mahsulotlari 102,5 foizni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon va tomorqa xo‘jaliklari egallagan bo‘lib, 2023- yil yanvar - sentabr oylarida jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 72,6 foizini (2022- yil yanvar- sentabr oylarida – 74,1 foiz) tashkil qildi. Fermer xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 22,8 foizi ishlab chiqarilgan (2022- yil yanvar- sentabr oylarida 22,7 foiz), shuningdek, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 4,6 foizi (2022- yil yanvar- sentabr oylarida – 4,6 foiz) ishlab chiqarilgan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi



Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi



2023- yilning yanvar- sentabr oylarida 18 554,9 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 7 380,0 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 39,8 foizi dehqonchilik, 11 174,9 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 60,2 foizi chorvachilik sohasiga to‘g‘ri keladi.

2023- yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda Bog‘ot tumani (47,2 foiz), Shovot tumani (45,5 foiz), Yangibozor tumanida (45,3 foiz) yuqori ko‘rsatkich qayd etildi. Urganch shahrida bu ko‘rsatkich 3,1 foiz bo‘lib, dehqonchilik mahsulotlari salmog‘ining kamayganligi qayd etildi.

Shuningdek, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori ko‘rsatkichlari Urganch shahrida (96,9 foiz), Xiva shahrida (75,3 foizi), Hazorasp tumanida (67,3 foiz) qayd etildi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hududlar hamda xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi



Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti ulushining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi. 2023- yilning yanvar- sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Yangibozor tumanida (32,4 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch shahrida (98,4 foizi) va Xiva shahrida (89,3 foizi),

qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qo‘shko‘pir tumanida (14,3 foizi) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich esa Yangiariq tumani (15,4 foizi) va Xiva tumanida (16,2 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Tuproqqal’a tumanida (61,5 foizi) hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch shahrida (1,6 foizi) hamda Xiva tumanida (1,7 foizi) qayd etildi.

Dehqonchilik. 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmi 7380,0 mlrd. so‘mni yoki jami yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 39,8 foizini tashkil qildi. 2022- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 112,4 foizni, jumladan, fermer xo‘jaliklarida 3734,3 mlrd.so‘mni (118,5 foiz), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 3211,1 mlrd.so‘mni (98,8 foiz), qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 434,6 mlrd so‘mni (176,2 foiz) tashkil qildi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni hududlar kesimida xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



Hosil yig‘imi. 2023- yilning yanvar - sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 312 613 tonna boshoqli don (107,4 foiz), shundan 307 303 tonna bug‘doy (107,1 foiz), 129 820 tonna kartoshka (101,3 foiz), 409 101 tonna sabzavot (101,3 foiz), 110 027 tonna poliz (102,6 foiz), 131 403 tonna meva va rezavorlar (101,2 foiz), 32 894 tonna uzum (92,5 foiz) yetishtirildi.



Chorvachilik. 2023- yilning yanvar - sentabr oylarida chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmi 11 174,9 mlrd so‘mni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 102,5 foizni, jumladan, fermer xo‘jaliklarida 496,8 mlrd so‘mni (103,7 foiz), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 10 260,1 mlrd so‘mni (100,8 foiz), qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 418,0 mlrd so‘mni (172,6 foiz) tashkil qildi.

Viloyat tumanlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)



2023 - yilning 1 – oktabr holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 101,5 foizni (jami 959,2 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan, sigirlar 101,8 foizni (367,1 ming bosh), qo‘y va echkilar 102,5 foizni (488,1 ming bosh), otlar 102,0 foizni (5,5 ming bosh), parrandalar 108,8 foizni (6822,2 ming bosh) tashkil qildi.

Chorva mollari va parrandalar bosh sonida xo‘jaliklar toifalarining ulushi
2023- yilning 1- oktabr holatiga



Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 91,2 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,5 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 82,4 foizni tashkil etdi.

2023- yil yanvar - sentabr oylarida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jaliklar toifalarining ulushi



2023- yil 1- oktabr holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	ming bosh	*o'sish sur'ati, %*
Yirik shoxli qoramol	**959,2**	**101,5**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	75,0	110,6
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	870,2	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	14,0	140,0
***ulardan:* sigirlar**	**367,1**	**101,8**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	30,8	112,0
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	330,9	100,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	5,4	135,0
Qo'y va echkilar	**488,1**	**102,5**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	83,5	119,3
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	380,0	98,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	24,6	129,5
Otlar, *bosh*	**5498**	**102,0**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklari	778	107,3
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	4653	100,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	67	131,4
Parrandalar	**6822,2**	**108,8**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	1057,4	125,4
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	3929,2	101,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1835,6	119,2

2023- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari

	miqdori	*o'sish sur'ati, %*
Go'sht (tirik vaznda), *ming tonna*	**141,3**	**106,1**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	4,7	104,2
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	124,1	100,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	12,5	2,7 m.
Sut, *ming tonna*	**919,6**	**102,2**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	43,5	103,9
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	871,5	102,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	4,6	114,5
Tuxum, *mln dona*	**382,5**	**96,1**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	38,6	109,8
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	276,5	101,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	67,4	74,7
Jun, *tonna*	**1172**	**101,3**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	125,0	102,5
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	1029,0	100,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	18	2,3 m.
Qorako'l teri, *dona*	**8753**	**101,0**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	567	109,5
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	8111	100,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	75	147,1

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 4231,0 mlrd.so‘mni yoki 2022- yilning tegishli davriga nisbatan 116,8 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 22,8 foizni tashkil etdi.

Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanishi (foizda)



2023- yilning 1- oktabr holatiga fermer xo‘jaliklarida 75,0 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 30,8 ming bosh sigir, 83,5 ming bosh qo‘y va echki, 778 bosh ot, 1057,4 ming bosh parranda mavjud bo‘lib, 2022 - yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 110,6 foizni, shu jumladan, sigirlar 112,0 foizni, qo‘y va echkilar 119,3 foizni, otlar 107,3 foizni, parrandalar 125,4 foizni tashkil qildi.

2023 - yilning yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklarida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	yanvar-sentabr				*2022- yanvar-sentabr oylariga nisbatan foiz hisobida*
	2022- yil		*2023- yil*		
	tonna	*umumiy hajmidagi ulushi, foiz*	*tonna*	*umumiy hajmidagi ulushi, foiz*	
Jami don	239882	66,0	260600	67,2	108,6
Kartoshka	30091	23,5	30809	23,7	102,4
Sabzavot	43744	10,8	44311	10,8	101,3
Poliz	45305	42,3	50045	45,5	110,5
Meva	45719	35,2	48198	36,7	105,4
Uzum	8587	24,1	8905	27,1	103,7
Go‘sht, tirik vaznda	4501	3,4	4690	3,3	104,2
Sut	41841	4,7	43479	4,7	103,9
Tuxum, *ming dona*	35128	8,8	38561	10,1	109,8
Jun, *tonna*	122	10,5	125	10,7	102,5
Qorako‘l, *dona*	518	6,0	567	6,5	109,5
Asal, *tonna*	212,2	10,4	252,7	19,8	119,1
Baliq, *tonna*	10153,0	73,0	10159,4	72,3	100,1

2023- yil 1- oktabr holatiga hududlar kesimida fermer xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar soni

Shahar va tumanlar nomi	Fermer xo‘jaliklari	Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi yirik tashkilotlar	Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar
Bog‘ot	358	2	80
Gurlan	430	4	181
Qo‘shko‘pir	428	1	58
Urganch	381	5	109
Hazorasp	374	1	34
Tuproqqal‘a	221	2	49
Xonqa	517	2	128
Xiva	322	4	50
Shovot	558	1	32
Yangiariq	313	4	49
Yangibozor	363	1	56
Urganch sh	-	7	30
Xiva sh	-	1	23
Viloyat jami	**4365**	**35**	**879**

2023 - yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Jami don *(tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha

387 785



Boshoqli don *(tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha

312 613



Bug‘doy *(tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha

307 303



Kartoshka *(tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha

129 820



2023 - yilning yanvar- sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sabzavot *(tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha
409 101



Poliz *(tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha
110 027



Meva va rezavorlar
(tonna) ***Jami viloyat bo‘yicha*** **131 403**



Uzum *(tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha
32 894



2023- yil 1- oktabr holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni

Yirik shoxli qoramollar *(bosh)*
Jami viloyat bo'yicha **959 151**



shu jumladan, sigirlar (bosh)
Jami viloyat bo'yicha **367 107**



Qo'ylar va echkilar *(bosh)*
Jami viloyat bo'yicha
488 127



Otlar *(bosh)*
Jami viloyat bo'yicha
5498



Parrandalar *(ming bosh)*

6822,2



2023 - yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Go‘sht *(ming tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha 141,3



Sut *(ming tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha 919,6



Tuxum *(mln dona)*
Jami viloyat bo'yicha 382,5



Jun *(tonna)*

Jami viloyat bo'yicha 1172





Asal (tonna) ***Jami viloyat bo'yicha 1073,0***



Baliq (tonna) ***Jami viloyat bo'yicha 14056,9***



Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko‘p yillik yosh ko‘chatlarni o‘stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlarining o‘zgarishi yig‘indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o‘stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatlarini o‘z ichiga oladi.Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

O‘rmon xo‘jaligi – o‘rmon va o‘rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o‘rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong‘inga qarshi dasturlarni ishlab chiqish kiradi. O‘rmon xo‘jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag‘ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko‘chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o‘suvchi qo‘ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong‘oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo‘jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko‘paytirish va yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

Fermer xo‘jaliklari - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.